



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 3/2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 3/2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 3/2



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабалжанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Камола Саипова ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПОТряСЕНИЯ 1917 ГОДА И ИЗМЕНЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО СОСТАВА НАСЕЛЕНИЯ ТУРКЕСТАНА.....	5
2. Аваз Ерметов ЎЗБЕКИСТОН ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИНИНГ СОВЕТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИДА ТУТГАН ЎРНИ ВА ФАОЛИЯТИДАГИ ХУСУСИЯТЛАР (XX АСРНИНГ 20-30 ЙИЛЛАРИ МИСОЛИДА).....	15
3. Raximjon Xasanov YOSHLAR MA'NAVİYATI VA MILLIY TARBIYA.....	22
4. Alibek Bengmatov XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA JANUBIY O'ZBEKISTONDA SPORT KADRLARINI TAYYORLASH: SIYOSIY, IJTIMOIIY VA INSTITUTSIONAL OMILLAR TAHLILI.....	27
5. Ahmad Ergashev YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI: FUTBOL INFRATUZILMASINI MODERNIZATSIYALASHDA HUQUQIY ISLOHOTLARNING O'RNI.....	36
6. Baxtiyor Nazirov SURXON VOHASIDA XALQ MILLIY O'YINLARI GENEZISI VA TARIXIY-ETNOLOGIK TAVSIFI.....	45
7. Axmedjon Yusupov, Mohira Abdullayeva O'RTA OSIYO KO'CHMANCHI XALQLARI HARBIY BOSHQARUVIDA QUROL YAROG'LARNING O'RNI (ILK SAK-MASSAGETLAR MISOLIDA).....	54
8. Абдухолик Мингнарoв XX АСР БОШЛАРИДАТУРКИСТОНДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР ВА ЖАДИДЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ МИЛЛИЙ МАТБУОТДА ЁРИТИЛИШИ.....	60
9. Людмила Соколова ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ВЫШИВКИ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ УЗБЕКИСТАНА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ.....	67
10. Baxtiyor Xalmuratov O'ZBEK XALQINING ORNITOLOGIK QARASHLARI: TARIXIY VA ZAMONAVIY TAHLIL.....	72
11. Jamshid Peremkulov XIX-ASR IKKINCHI YARMIDA TOSHKENT SHAHRI MAHALLALARI TARIXI.....	78
12 Anvarjon Erqo'ziyev XIV – XIX ASRLARDA O'RTA OSIYONING XALQARO SAVDODAGI ISHTIROKI.....	86



Anvarjon Erqo‘ziyev,
Namangan davlat universiteti
Tarix kafedراسи dotsenti, tarix fanlari nomzodi

XIV – XIX ASRLARDA O‘RTA OSIYONING XALQARO SAVDODAGI ISHTIROKI

For citation: Anvarzhon Erkuziev. CENTRAL ASIA'S PARTICIPATION IN INTERNATIONAL TRADE IN THE 14TH–19TH CENTURIES. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 3.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19845547>

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘rta Osiyo savdogarlarining mo‘g‘ullar davridan boshlab to XIX asr o‘rtalariga qadar savdo tijorat maqsadida Yevropa mamlakatlari bilan olib borgan aloqalari, o‘zaro almashingan savdo mollari, aloqalarda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan savdo yo‘llari, ular faoliyatida yuz bergan o‘zgarishlar tahlil etilgan. Shuningdek, ikki mintaqa hunarmandchilik an`analarining o‘zaro integratsiyasi masalalari ham ochiqqlangan.

Kalit so‘zlar: Buyuk ipak yo‘li, carusmisna, organinum, xom ipak, terra inkognito, Moskva savdo kompaniyasi, freska, hojido`ppi, ingliz mahsulotlari, zarrin kimxob, yupqa gazlama, laxtak matolar, chit, gul bosilgan matolar, so‘zana.

Анваржон Эркузиев,
Наманганский государственный университет
Доцент кафедры истории, кандидат исторических наук

УЧАСТИЕ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ В XIV– XIX ВЕКАХ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются торговые отношения центральноазиатских купцов с европейскими странами от монгольской эпохи до середины XIX века, обмениваемые товары, важные торговые пути и изменения, произошедшие в их деятельности. Также раскрываются вопросы взаимной интеграции ремесленных традиций двух регионов.

Ключевые слова: Великий Шелковый путь, карусисна, органинум, необработанный шелк, terra incognito, Московская торговая компания, фреска, хаджидоппи, английская продукция, золотой кимхоб, тонкая марля, лактаковые ткани, чит, ткани с цветочным принтом, созана.

Anvarzhon Erkuziev,
Namangan State University
Associate Professor, Department of History, PhD in History

CENTRAL ASIA'S PARTICIPATION IN INTERNATIONAL TRADE IN THE 14TH–19TH CENTURIES

ABSTRACT

This article analyzes the trade relations of Central Asian merchants with European countries from the Mongol era to the mid-19th century, the goods exchanged, important trade routes, and the changes that occurred in their activities. It also explores the mutual integration of the two regions' craft traditions.

Index Terms: Great Silk Road, karusmisna, organinum, raw silk, terra incognita, Moscow Trading Company, fresco, hadjidoppi, English products, gold kimkhob, fine gauze, lactacite fabrics, chit, floral-print fabrics, sozana.

1. Dolzarbligi

O'rta Osiyo xalqlarining uzoq va yaqin mamlakatlar bilan siyosiy-iqtisodiy va madaniy aloqalari mintaqa aholisining Buyuk Ipak yo'li orqali olib borgan iqtisodiy munosabatlari, Yevropa va Osiyoning iqtisodiy imkoniyatlarini mustahkamlanishiga muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Bu jarayonlar ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishiga, har ikki mintaqa aholisi o'rtasidagi ilmiy yutuqlar, madaniyat almashinuviga xizmat qilgan. Mintaqalararo savdo aloqalari yer yuzi aholisining o'z sayyorolari to'g'risidagi tasavvurlarining kengayishiga, ikki mintaqa savdogarlarining muhim daromad manbaiga egalik qilishiga olib kelgan.

2. Metodlar:

Tadqiqot metodologiyasini tanlashda siyosiy-iqtisodiy vaziyatni muhim jihatlarini e'tiborga olish lozim bo'ladi. Chunki avvalo iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar ichki siyosiy hayotni ta'minlagani bois falsafiy jihatdan tarixiy jarayonlarni anglashda uni yagona usul sifatida tanlash har doim ham muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Bu borada avvalo davlatchilikdagi tarixiy tajribani to'g'ri tahlil qilish orqaligina maqsadga erishish mumkin bo'ladi. Ishda tarixiylik va dialektik usulning qo'llanishi tarixiy jarayonlarni tizimli yondashuv asosida o'rganishni nazarda tutadi. Bunda muammoning ya'ni qit'alararo savdo aloqalarining ishlab chiqarilgan mahsulotlarga mintaqalardagi ehtiyoj asosida tahlil qilindi. Ob'ektivlik esa ishga turli nuqtai nazarlar bilan yondashilgan manbalarga xolis baho berish imkoniyatini berdi.

3. Tadqiqot natijalari:

IX-XII asrlarga kelib, Markaziy Osiyoda markazlashgan davlatlarning tashkil topishi natijasida siyosiy barqarorlikning mustahkamlanishi, mintaqaning iqtisodiy, ilmiy-madaniy yuksalishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Bu esa ichki va tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlanishiga imkon berib, O'rta Osiyolik savdogarlarning G'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan savdo aloqalari kengayishiga olib keldi[1]. Ayniqsa, XIII asrda mo'g'ullar tomonidan Movarounnahr, unga qo'shni hududlar, uzoq va yaqin mamlakatlarni qo'lga kiritilishi G'arbiy Yevropada Markaziy Osiyoga bo'lgan qiziqishni jonlantirib yubordi. Shu sababdan, G'arbiy yevropalik missionerlar va savdogarlar Movarounnahr, Oltin O'rda hududlarigacha kirib kelib, bu yerda o'z qarorgohlari va savdo bazalarini bunyod etganlar. Fransiskan monaxlari Jovanni Marinolli (1338-1358) va Elomazinilarning (1336) guvohlik berishicha bunday qarorgoh va bazalar Urganch shahrida ham mavjud bo'lgan[2].

XIII-XIV asrlarda Markaziy Osiyodan Yevropaga olib ketilgan savdo mollarining asosiy qismini xom ipak tashkil etgan. Xitoy ipagi doimo yevropaliklarni diqqatini o'ziga tortib kelgan bo'lsa-da, tranzit o'lkalarda ham ishlab chiqarilgan mahsulotlar yevropa savdogarlarini e'tiborini torta boshlagan. Xususan, Xorazmda tayyorlangan tayyor ipak mahsulotlariga Yevropada talab katta bo'lgan. 1289-1290 yilda Eski Qrimda tuzilgan bojxona xujjatiga binoan, genuyalik yirik savdogarlar Andre Spinolo, Bonvassolino va Persival Lomellina Qora dengizning Kafa portidan Genuyaga ko'p miqdorda "carusmisna" (Xorazm) va "organinum" (Urganch) nomli ipak matolarini jo'natgan edi[3]. Bu ma'lumot Xorazm hunarmandlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahalliy ipak mato yevropa bozorlarida Xitoy, Eron va Vizantiya ipagi hamda ipak matolari bilan bemalol bellasha olganligini ko'rsatadi.

Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davriga kelib, O'rta Osiyo va unga qo'shni mamlakatlar siyosiy hayotining tartibga solinishi, Movarounnahrda markazlashgan davlatning barpo etilishi hududda savdo-iqtisodiy munosabatlarning jonlanishiga olib keldi. Bu jarayonlarning rivojlanishi natijasida mamlakatning tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalari yuksalgan.

Amir Temurning Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'ini Movarounnahr sarhadlariga ko'chirish yo'lidagi harakatlari natijasida Volga bo'yida joylashgan Oltin O'rda shaharlari Temuriylar davlati tarkibiga kiritilgan. XIV asr oxiriga qadar, yevropa-Osiyo savdo aloqalarida asosiy tranzit shaharlar vazifasini o'tagan Astraxan va Urganch shaharlarini vayron bo'lishi natijasida, yevropa va Osiyo o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalarida Astraxan, Urganch va Quyi Volgabo'yining ahamiyati O'rta yer dengizi bo'yida joylashgan Suriya shaharlariga o'tgan[4].

Nemis geografi R.Xenninning fikricha, Buyuk Ipak yo'lining mavqeyi va faoliyati Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida Hindistonga dengiz yo'li ochilganidan so'ng kamayadi, O'rta Osiyo mintaqasi esdan chiqariladi va "terra inkognito"ga aylanadi. Ammo, azaldan qon-qonida savdogarlik fazilatlarini jo'sh urgan o'rta osiyolik tujjorlar, garchi Buyuk Ipak yo'li o'zining transkontinental ahamiyatini yo'qotgan bo'lishiga qaramay, uning mahalliy shaxobchalari orqali Moskva davlati, Eron va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalari olib borganlar.

XVI asrga kelib, Buyuk geografik kashfiyotlarning yutuqlaridan bebahra qolgan Angliya davlatining Xitoy va Hindistonga Moskva davlati, O'rta Osiyo orqali tranzit savdo yo'li ochishga intilishi, O'rta Osiyoni jahon savdosining muhim bo'g'iniga aylantirdi. Shu orqali O'rta Osiyoda ishlab chiqarilgan mahsulotlar jahon bozorida, yevropa mollari esa O'rta Osiyo bozorlari va xalq xo'jaligida o'z o'rniga ega bo'la boshladi.

"Moskva" savdo kompaniyasining vakili Antoni Jenkinson 1557 yilda yevropaliklardan birinchi bo'lib, savdo karvoni bilan Buxoroga keldi. Astraxandan Urganch sari yo'lga chiqqan 1000 tuyali savdo karvoniga qo'shib olgan A.Jenkinson Xiva xonligi hududida duch kelgan ilk manzili Vazir shahri haqida shunday yozadi: "Xalq bu yerda nochor ahvolda yashaydi. Savdosi ham shunga yarasha nochor bo'lib, hych qanday ahamiyat kasb etmaydi[5]." Bu davrda Vazir shahrining mamlakatdagi siyosiy beqarorlik, markazlashgan davlat salohiyatining sustligi hamda ko'chmanchi xalqlar hujumiga duchor bo'lganligi, shaharning iqtisodiy tanazzuliga sabab bo'lgan edi. "Xonlik poytaxti Urganchda esa bozor usti yopiq holda bo'lib, butun ko'chani egallagan. Ammo shaharda yirik savdogarlar juda kam va shahar aholisi nochor ahvolda yashaydi[6]." Shuning uchun, A.Jenkinson shaharda bo'lgan paytda to'rt bo'lak astarlik gazlamasi sota olgan, xolos.

Buxoro bozorlarida ham Jenkinson olib kelgan ingliz mollariga aytarli talab bo'lmadi. Chunki, mahalliy savdogarlar tomonidan Buxoro bozorlariga Xalab (Aleppo), Smirna (Izmir) shaharlaridan olib kelingan ingliz mollari qimmat narxda bo'lib, aholining ulardan o'z extiyoji uchun foydalanishga imkoniyati yetmasdi. Buxoro bozorlarida ingliz mollariga qo'yilgan narxlar karvon yo'li bojlari va tranzit mamlakatlar hukmdorlariga berilgan sovg'a-salomlarning ko'pligi tufayli qimmat edi. Shu sababdan Jenkinson ham boshqalardan farqli o'laroq, o'z mollarini arzon narxda sotishga botinolmadi[7]. Buxoro bozorlaridagi shunday holat tufayli, A.Jenkinson "Moskva" savdo kompaniyasi uchun yozgan hisobotlarida O'rta Osiyoda Rossiya davlatining yordamisiz hych qanday iqtisodiy imkoniyatlarga erishib bo'lmashligini yozgan edi[8]. Akademik V.V.Bartoldning fikricha, "Moskva" savdo kompaniyasining vakili Jenkinsonning O'rta Osiyoga savdo elchiligi, Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklari bilan munosabatlar o'rnatishdagi dadil tashabbusi edi[9]. Bu tashabbusga ijobiy javob bergan Buxoro, Balx, Urganch hukmdorlari A. Jenkinson bilan birgalikda o'z elchilarini 600 tuya savdo tovarlari bilan Moskvaga jo'natgan edilar.

Xitoy va Hindistonga savdo yo'lini ochish umidida O'rta Osiyoga kelgan Jenkinson Buxoroda 1558 yilning bahoriga qadar yashadi. Bu yerda u Buxoro hukmdori Abdullaxon II (1557-1598)ning qabulida bo'ldi, xonlikning ichki va tashqi savdo aloqalari, iqtisodiy imkoniyatlariga doir ma'lumotlar to'pladi. Bu davrda Buxoroning Rossiya bilan tashqi savdo aloqalari sezilarli darajada kuchaygan bo'lib, Xitoy bilan olib borilayotgan savdo esa tanazzulga yuz tutayotgan edi[10]. Mana shu jihatlar Jenkinsonning "Moskva" savdo kompaniyasi uchun yozgan hisobotlari orqali butun yevropaga tarqalib, endilikda yevropaliklar quruqlik orqali Rossiya va O'rta Osiyo bilan savdo

aloqalari olib borishga harakat qilganlar. Shunday qilib, O'рта Osiyo yevropaliklarning quruqlik orqali Sharqqa intilishlarida eng so'nggi hududga aylangan.

Rossiya davlati va O'рта Osiyodagi iqtisodiy holat, savdo munosabatlari haqida qimmatli ma'lumotlar olgan A.Jenkinson, qirolicha Yelizaveta (1558-1603) saroyida o'zi bilan Angliyaga olib kelgan tatar qizi Sulton Aurani saroy ayonlariga tanishtiradi[11].

O'рта Osiyolik savdogarlarning bevosita yevropaliklar bilan savdo aloqalari ularning Yaqin Sharq mamlakatlari bilan olib borgan iqtisodiy aloqalari tufayli rivojlanib borgan. Masalan, Suriyaning Aleksandretta porti Levant savdo yo'lining dengizdagi eng so'nggi manzili bo'lib, Buxoro savdogarlari ham bu shaharga tez-tez kelib turishgan. Savdo porti bojxona jurnalida qayd etilishicha, Bag'dod, Buxoro va Julfa savdogarlari oddiy movut va ba'zi Sharq mamlakatlarida kiyiladigan popukli bosh kiyimi (feska, xojido'ppi) bilan savdo qilish uchun Marsel shahriga, qizil movut va oynalar bilan savdo qilish uchun esa Venetsiyaga qatnab turishgan[12]. Aynan shu yo'l orqali O'рта Osiyoda XIII asrdan beri boqib kelinayotgan Angor echki turining terisi yevropaga chiqarilgan. Shuningdek, Buxoro ipagi Qizilboshlar (Eron) va Turkiya hududi orqali yevropaga nemislar qo'liga, Astraxan orqali Moskvaga yetib brogan[13].

XIX asrga kelib, O'рта Osiyo bozorlarida Yevropada ishlab chiqarilgan mahsulotlar ko'paydi, chunki O'рта Osiyo bozorlarini o'z mahsulotlari bilan egallash uchun Angliya- Rossiya raqobatining kuchayishi bunga zamin yaratdi. Shuningdek, O'рта Osiyo bozorlariga olib boruvchi yo'llarning ko'payishi va ularda o'rnatilgan xavfsizlik savdo aloqalarini rivojida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

"Hindistondan Buxoroga ko'p miqdorda ingliz mahsulotlari, zarrin kimxob, yupqa gazlama, laxtak matolar, chit, gul bosilgan yoki yo'l-yo'l matolar olib kelinardi", deb yozadi P.I.Demezov[14]. Zarrin kimxobning katta qismi Buxoroga Qo'qon orqali olib kelingan. Keyinchalik inglizlar o'z mahsulotlarini Buxoroga eltish uchun Eron hududi orqali o'tuvchi yangi yo'ldan foydalana boshlaganlar. Eron orqali Buxoroga olib kelingan mahsulotlar Rossiya orqali Buxoroga keltirilgan tovarlardan sifat jihatdan yaxshi bo'lib, tezda sotilib ketgan[15].

Yevropaning Sharq mamlakatlari, xususan O'рта Osiyo bilan savdo aloqalarida Rossiyaning muhim tranzit davlatga aylanishi natijasida, uning hududida bilvosita O'рта Osiyo-yevropa savdo aloqalari jonlangan. O'рта Osiyodan Rossiyaga chiqarilidan rovoch, xushta'm ziravorlar, mushk, anbar, ip-gazlamalar, ipak, bo'yoqlar, shuningdek mo'yna, mashhur zandanachi matosi, ipak kimxob, bo'z, Buxoro shoyi belbog'lari, oq matodan tayyorlangan yomg'ir o'tkazmaydigan yopinchiqlar yevropaliklar uchun asosiy xaridorgir tovarlar hisoblangan. Rossiyadan esa O'рта Osiyoga asosan rus tovarlari bilan birga ingliz tovarlaridan shimol mo'ynalari, movut va oyna olib kelingan[16].

O'zaro bevosita va bilvosita aloqalarning rivojlanishi natijasida savdo tovarlari tayyorlash an'analari va tajribasi almashinib bordi. Buning mahsuli sifatida O'рта Osiyo mollari yevropada, yevropa mollari O'рта Osiyo shaharlarida tayyorlana boshladi.

XVII asrdan boshlab, Fransiyaning Langedok va Dofine grafliklarida seizains – (so'zen) deb nomlanuvchi mato tayyorlana boshlagan[17]. Ushbu matoning tayyorlash texnikasi xuddi so'zana tayyorlash uslubiga o'xshab, nomlanishi ham so'zana ma'nosiga yaqindir.

Kamerdiner Minerning qayd etishicha, Buxorodan Rossiyaga oliy navli qimmat bo'yoq olib kelingan bo'lib, mahalliy tilda u qirmiz deb atalgan. "Bu bo'yoqni sahroda o'suvchi uncha katta bo'lmagan daraxtning qurt-hasharoti (koshenil)dan olishadi. Ammo, buxoroliklarning o'zlari bu bo'yoqni tayyorlash sirini bilishmaydi. Ular qurt va hasharotlarni yig'ib, yahudiylarga sotadilar. Ular esa qurt-hasharotlardan olingan bo'yoqqa yevropadan olib kelingan nemis bo'yog'ini aralastirib, oliy sifatli bo'yoq tayyorlaydilar. Bu bo'yoq bilan rang berilgan movut va ipak karmazin deb ataladi[18]." Yuqoridagi ma'lumotlar O'рта Osiyo va yevropaning savdo mahsulotlari tayyorlash uslubining aholi tomonidan mukammal o'zlashtirilganligidan dalolat beradi.

Xorazm, Buxoro va turkman gilamlarini G'arbiy yevropadagi savdosidan o'рта osiyolik savdogarlar katta daromad olganlar[19]. Shunday gilam savdosi tufayli, yevropada saqlanib qolgan turkman gilamlaridan ularning unutilib ketgan eskizlarini tiklashga muvaffaq bo'lindi.

O'rta asr Yevropasi rassomlarini yaratgan ayrim asarlarda XV-XVI asrlarda to'qilgan turkman gilamlarini tasvirini uchratish mumkin. 1532 yilda nemis rassomi Golbeyn mo'yqalamiga mansub "Savdogar Georg Gisse portreti" asarning fonida geometrik rasmlari, qizil tukli turkman gilami tasvirlangan[20].

Yevropa va O'rta Osiyo savdogarlarining har ikki hududda bevosita savdo-sotiq olib borishga intilishi natijasida yevropada o'rta osiyoliklarning, O'rta Osiyoda yevropaliklarning savdo-sotiq olib borishga urinishlari yuz bergan. Shunday urinishlardan biri XII asrda, O'rta osiyolik yirik savdogar, katta do'konlar sohibi Abul Fath Nasr ibn Hasan Shoshiy tomonidan amalga oshirilgan. U savdo karvonlari yordamida Ispaniyaning Andaluziya viloyatiga borib, savdo-sotiq ishlarini amalga oshirgan[21]. Shuningdek, bir buxorolik yahudiy 1845 yilda kashmir ro'molini sotish uchun Parij va London shaharlarida bo'lgan edi[22].

4. Xulosa o'rnida shuni qayod etish mumkinki, O'rta Osiyo va yevropa mamlakatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar Buyuk Ipak yo'li o'z ahamiyatini yo'qotganidan so'ng ham davom etib, ikki hududning o'zaro siyosiy-iqtisodiy va madaniy aloqalarida muhim o'rin tutgan. Har ikki hudud savdogarlari tomonidan olib borilgan bevosita va bilvosita savdo aloqalari tufayli O'rta Osiyo jahon savdosining muhim bo'g'iniga aylangan, Buyuk Ipak yo'lining mahalliy tarmoqlari O'rta Osiyoning Rossiya, Yaqin Sharq mamlakatlari bilan aloqalarida muhim iqtisodiy tomirlar vazifasini o'tagan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Кдырниязов М.Ш. О.роле Хорезма в Евразийской торговле XIII-XV веков./ Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент., 2000,– №1.– С.37.
2. После Марко Поло: Путешествия западных чужеземцев в страны трех Индий/ Перевод с латинского и старолатинского языков, введение и примечания Я.М. Света. – Москва., 1968. – С.119.
3. Кдырниязов М.Ш. О.роле Хорезма в Евразийской торговле XIII-XV веков./ Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент., 2000, – №1.– С.38.
4. Байкова Н.Б. Россия билан Шарк ўртасидаги иқтисодий алоқалар тарихидан. – Тошкент., "Фан". 1964. – Б.22.
5. Панков А.В. К истории торговли Средней Азии с Россией. // В.В. Бартольд. Туркестанские друзья и ученики и почитатели. – Ташкент., 1927. – С.30.
6. Панков А.В. К истории торговли Средней Азии с Россией. // В.В. Бартольд. Туркестанские друзья и ученики и почитатели. – Ташкент., 1927. – С.31.
7. Саймонов Ф. О торгах за Каспийское море древних, средних и новейших времён. – Москва., 1765. – С.16.
8. Соколов Ю.А. К вопросу о причинах провала Английских устремлений в Восточную Европу, Среднюю Азию и Персию. (XVI-XVII вв.)/Труды САГУ им.В.И.Ленина. История стран Востока. – Ташкент., 1955. – С.32.
9. Бартольд В.В. История изучение Востока в России и Европе. – Ленинград., 1925. – С.176.
10. Панков А.В. К истории торговли Средней Азии с Россией. В.книге: В.В. Бартольд. Туркестанские друзья и ученики и почитатели. – Ташкент., 1927. – С.31.
11. Толстой Ю. Англия и её виды на Россию в XVI веке./ Вестник Европы. – Москва.,1875. – №8. – С.489.
12. Калди-Надь Д. Данные к истории Левантийской торговли в начале XVII столетия. В книге: Восточные источники по истории народов Юго-Восточной Центральной Европы. вып 2. – Москва., Наука. 1969. – С.329.
13. Панков А.В. К истории торговли Средней Азии с Россией. В.книге: В.В. Бартольд. Туркестанские друзья и ученики и почитатели. – Ташкент., 1927. – С.46.
14. Записки о Бухарском ханстве. – Москва., Наука. 1983. – С.25.
15. Записки о Бухарском ханстве. – Москва., Наука. 1983. – С.25.

16. Потанин. О караванной торговле..... – С. 26-28.
17. Braudel F. et etc. Le decline de Venise au XVI em siecle / Aspetti e cause della defidenza economica veneziana nel secolo XVII. Venise. 1961. – P. 121.
18. Панков А.В. К истории торговли Средней Азии с Россией в 1675-1725 г. – Москва., 1939. – С.52.
19. Михалева Г. Узбекистан в XVIII-первой половине XIX века: ремесло, торговля, пошлины. – Т., «Фан», 1991. – С.110.
20. Ўрта Осиё ва Қозоғистон Республикалари бўйлаб саёхат. – Тошкент., “Ўқтувчи”, 1991. –Б.45.
21. Бунятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов. 1097-1231. – Москва., «Наука», 1986. – С.103.
22. Небольсин П.И. Очерки торговли Россией с Средней Азией. – СПб.1856. – С.25.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqolalar o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 5 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola (IMRAD) 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 5 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новый текст начинается со следующей строки, и статья состоит из (IMRAD) 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиата. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должны быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 5 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists (IMRAD) of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].